



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA DARS MASHG'ULOTLARINI O'TISH

To'raqulov Akbar Rustam o'g'li

DTPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Sattorova Fazilat

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti boshlang'ich

ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Tel:978489669

fazilatsattorova54@gmail.com

**Annotasiya:** maqola o'qituvchi dars davomida darsni mustahkamlash, tushuntirish, dars samaradorligini oshirishida kerak bo'lgan interfaol metodlar haqida.

**Kalit so'z:** metod, interfaol metod, fikrlash, pedagogik mahorat, bilimlarni mustahkamlash.

**Abstract:** the article is about the interactive methods that the teacher needs to strengthen, explain, and improve the effectiveness of the lesson during the lesson.

**Key word:** method, interactive method, thinking, pedagogical skills, knowledge strengthening.

**Аннотация:** в статье речь идет об интерактивных методах, которые необходимы учителю для усиления, объяснения и повышения эффективности урока в ходе урока.

**Ключевые слова:** метод, интерактивный метод, мышление, педагогическое мастерство, закрепление знаний.

**Kirish:** Ta'lim samaradorligini oshirishda dars jarayonida o'qituvchi har xil interfaol metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Darsda interfaol metodlardan samarali foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Avvalo, "interfaol metod o'zi nima?" degan savolga javob beramiz.

"Interfaol" so'zi ingliz tilida interact so'zidan olingan bo'lib, inter— o'zaro ikki taraflama, act— harakat qilmoq degan ma'nolarni ifodalaydi. Interfaol metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, dunyoqarashini shakllantiradi, o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga hamda o'qituvchi tomonidan o'rgatilgan bilimlarni qayta so'rashga ko'maklashadi.


**Asosiy qism:** "Ta'lim jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta'lim oluvchilar tomonidan



bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi.”<sup>1</sup>

Interfaol metodlarga “Aqliy hujum”, “Baliq skeleti”, “Bilaman. Bilishni xohlamayman. Bilib oldim.”, “Blits so'rov”, “Bumerang”, “Venn diogrammasi”, “Zinama-zina”, “Intervyu”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Kungaboqar”, “Savol-javob”, “Suhbat”, “Test”, “FSMU”, “Yelpig'ich”, “Zakovatli zukko”, “Gugurt donalari”, “Idrok xaritasi”, “Yagona davra” kabi metodlar kiradi.

“Klaster” metodi — ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi metod hisoblanadi. “Klaster” metodini amalga oshirishda biror mavzuning asosiy tushunchasi o'rtaga aylanma shaklidagi chizma ichiga yoziladi. So'ngra shu tushuncha haqida ko'z oldiga kelgan narsalar asosiy tushunchani atrofidagi aylanachalarga yoziladi. Masalan, 3-sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsidagi “Jamoat transporti” mavzusini misol qiladigan bo'lsak:



“Nilufar guli” metodi o'quvchilarda fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

“Venn diogrammasi” grafik organayzeri ikki va undan ortiq narsalarni, voqealarni taqqoslash, solishtirish, farqlash uchun ishlatiladi. Venn diogrammasi bir xil ikki doira chiziladi. So'ng ularni ortasiga o'xshash jihatlari, yon tomonlariga esa farqli tomonlari yoziladi.

“Bumerang” metodi o'quvchilarda fikrini erkin bayon eta oladigan, yodda saqlaydigan, so'zlab beradigan kabi ko'nikmalarini shakllantiradi.

“FSMU” metodi darsda mavzu yuzasidan fikrini bildirishni, fikrini asoslab beruvchi sababini aytishi, tasdiqlovchi misollar keltirib, so'ngra hammasini umumlashtirishi kerakligini o'quvchilarda o'rgatadi. F-fikringizni bayon eting. S-

<sup>1</sup> Pedagogika: 1000ta savolga 1000ta javob/ Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. — Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012yil.— 122bet



fikringizni asoslab beruvchi sabab ko'rsating. M–keltirgan sababingizni tasdiqlovchi misollar keltiring. U–barcha bildirilgan fikrlaringizni umumlashtiring.

“Kungaboqar” metodi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrini erkin bayon eta olishga, o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlashga, o'quvchilarning bilim salohiyatini qay darajada ekanligini aniqlashda yordam beruvchi metod hisoblanadi.

“Test” metodi o'quvchilarning bilimini qay darajada ekanligini aniqlab, baholashga xizmat qiladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun test metodidan foydalanish ham mumkin. Masalan, 3-sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligining “Dunyo okeanlari” mavzusi so'ngida o'quvchilarni olgan bilimlarini tekshirish hamda mustahkamlash uchun test berilgan.

1. Nimalar dengiz suviga qo'shimcha mineral moddalarni olib keladi?

- A. Ariqlar
- B. Daryolar
- D. Soylar
- E. Ko'llar

2. Yer sharining deyarli yarmini qoplagan okean qaysi?

- A. Shimoliy muz okeani
- B. Atlantika okeani
- D. Hind okeani
- E. Tinch okeani

3. O'txo'r dengiz jonivorlarini nima yemishsiz qoldirmaydi?

- A. Daryolar
- B. Okean
- D. Quyosh
- E. Tuzlar

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflar dars jarayonida turli xil interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini, o'quvchilarning bilim salohiyatini, savodxonligini oshirishga, olingan bilimlarni takrorlash hamda mustahkamlashga yordam beradi. Buning uchun o'qituvchilar pedagogik mahoratini ishga solib, dars jarayonida samarali metodlardan foydalanish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**



1. .D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi (metodik qo'llanma)". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti,2013;
2. Pedagogika: 1000ta savolga 1000ta javob/ Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. — Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012yil.
3. Akbar, T. (2022). Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(8), 160-167.
4. Rustamovich, T. R. A. (2021). Islom Ta'limotlarda Shaxs Ma'naviyati Masalalari. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 186-190.
5. "Ona tili va o'qish savodxonligi" 3-sinf uchun darslik/ Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursunov, Zeboxon Ro'zmetova – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022yil.